



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOJI BIRLIKLARINI CHOG'ISHTIRMA O'RGANISH METODLARI VA MUAMMOLARI

Jalilova Nilufar Toxirjonovna

Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida emoji birliklarining lingvistik tabiati hamda ularni chog'ishtirma o'rganishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Emojilarning zamonaviy raqamli kommunikatsiyadagi funksional-semantik xususiyatlari, pragmatik yuklamasi va diskursiv roli ilmiy jihatdan asoslanadi. Turli lingvomadaniy muhitlarda emoji birliklarining talqin qilinishi va ularning kontekstual ma'no hosil qilish jarayonidagi o'ziga xosliklari aniqlanadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy va diskurs tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijalar emoji birliklarini til tizimining muhim komponenti sifatida baholash va ularni o'rganishdagi dolzarb muammolarni aniqlash imkoniyatini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: emoji birliklari, chog'ishtirma lingvistika, semantika, pragmatika, diskurs tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, raqamli kommunikatsiya.

МЕТОДЫ И ПРОБЛЕМЫ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ЭМОДЗИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Жалилова Нилуфар Тохиржоновна

Наманганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье исследуется лингвистическая природа эмодзи в английском и узбекском языках, а также теоретико-методологические основы их сопоставительного анализа. Рассматриваются функционально-семантические характеристики, прагматическая нагрузка и дискурсивная роль эмодзи в современной цифровой коммуникации. Особое внимание уделяется интерпретации эмодзи в различных лингвокультурных контекстах и их участию в формировании значения в дискурсе. В работе использованы сопоставительно-типологический, описательный и дискурсивный методы анализа. Результаты позволяют определить место эмодзи в языковой системе и выявить актуальные проблемы их изучения.

Ключевые слова: эмодзи, сопоставительная лингвистика, семантика, прагматика, дискурс-анализ, английский язык, узбекский язык, цифровая коммуникация.

METHODS AND PROBLEMS OF THE COMPARATIVE STUDY OF EMOJI UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Jalilova Nilufar Tokhirjonovna

Namangan State University, Independent Researcher

Abstract

This article investigates the linguistic nature of emoji units in English and Uzbek, as well as the theoretical and methodological foundations of their comparative analysis. The functional-semantic features, pragmatic peculiarities, and discursive role of emoji in modern digital communication are examined. Particular attention is paid to the interpretation of emoji in different linguocultural contexts and their role in meaning-making within discourse. The study employs comparative-typological, descriptive, and discourse analysis methods. The findings contribute to understanding emojis as an essential component of the language system and identify key

challenges in their study.

Keywords: emoji units, comparative linguistics, semantics, pragmatics, discourse analysis, English language, Uzbek language, digital communication.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari sezilarli darajada o'zgardi. Xususan, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida yozma nutqda yangi semiotik birliklar, jumladan, emoji belgilar faol qo'llanila boshladi. Emojilar nafaqat hissiy holatlarni ifodalash vositasi, balki muloqot jarayonida ma'no uzatish, nutqni qisqartirish va kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda emoji birliklari lingvistikaning turli yo'nalishlarida, xususan, semantika, pragmatika va diskurs tahlili doirasida keng o'rganilmoqda. Biroq ularning turli tillar va madaniy muhitlardagi talqini, funksional xususiyatlari hamda qo'llanishidagi o'ziga xosliklar yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarida emoji birliklarining chog'ishtirma tahlili, ularning lingvomadaniy jihatlari va kommunikativ vazifalarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, emojilar yozma nutqning oddiy qo'shimcha bezagi emas, balki matn bilan birga ishlaydigan semantik-pragmatik ko'rsatkich bo'lgani sababli ularni o'rganishda faqat an'anaviy leksik-semantik usul bilan cheklanib bo'lmaydi. Shu bois olib borilayotgan tadqiqotlar kontrastiv tilshunoslik, semantik tahlil, pragmatolingvistika, diskurs tahlili, multimodal yondashuv hamda korpus metodlarini o'zaro integratsiya qilish asosida qurilishi lozim, deb hisoblaymiz. Mavjud kontrastiv tadqiqotlarda ham til birliklari qiyosini faqat shakliyl moslik doirasida emas, balki ularning funksional, uslubiy va madaniy yukini hisobga olgan holda olib borish lozimligi ta'kidlanadi [1; 3–19-b., 7–26-b.]. Fikr qilib aytish mumkinki, emoji singari multimodal birliklarni qiyoslashda aynan integrativ metodologiya eng maqbul yo'l sanaladi, chunki bunday yondashuv ularning kodlangan va kontekstual ma'nolarini birgalikda tushuntira oladi.

Chog'ishtirma tilshunoslikning klassik namoyandalardan biri Robert Lado boshqa tillarni qiyoslashda tuzilma va qo'llanishdagi o'xshashlik hamda farqlarni aniqlash til o'rganish va tahlilning asosiy usuli ekanini ko'rsatgan [2; 1–17-b.]. J. Fisiak esa kontrastiv tadqiqotning nazariy va amaliy vazifalarini ajratib, bir tomondan, til tizimlarini qiyoslash, ikkinchi tomondan esa real nutq materiallarida funksional farqlarni aniqlash zarurligini ta'kidlab o'tgan [3; 10-b.]. Ushbu qarashlar emoji tadqiqi uchun muhim hisoblanadi, chunki bir xil vizual belgi turli tillarda aynan bir xil kommunikativ ta'sir bermasligi mumkin. Ta'kidlash joizki, Lado va Jamesdagi kontrastiv metod emojining bazaviy denotativ mosliklarini aniqlash uchun juda foydalidir, biroq emoji semantikasi formal qiyosdan ko'ra kengroq bo'lgani uchun uni funksional va lingvomadaniy tahlil bilan to'ldirish shart.

Semantik metodlar orasida komponential tahlil ham alohida o'rin tutadi. J. Katz va J. Fodor ma'no tarkibini kichik semantik belgilar tizimi sifatida ko'rib, leksik birliklarni farqlash uchun komponentlarga ajratish usulini taklif etganlar [4; 210-b.]. E. Nida esa bu yondashuvni tizimlashtirib, komponential tahlil ma'no segmentlarini aniqlash, yaqin ma'noli birliklar o'rtasidagi farqni ko'rsatish hamda qiyosiy semantik tavsif yaratishda samarali ekanini ko'rsatadi [5; 32–41-b.]. J. Lyons va D. A. Cruse esa ma'no tahlilida denotatsiya, konnotatsiya, semantik maydon, polisemiyaga alohida urg'u beradilar [6; 16–24-b.]. Emoji tahlilida komponential usul bir emojining yadroviy ma'nosini, masalan, quvonch, tasdiq, xafalik, masxara, samimiylik singari belgilar orqali ajratishga yordam beradi. Mazkur metod emojining lug'aviy-standart nomi bilan real qo'llanishi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatishda muhimdir, biroq komponentlar faqat boshlang'ich qadam bo'lib, yakuniy talqin uchun kontekst talab etiladi.

Olib borilgan chog'ishtirma tadqiqotlarni o'rganish asnosida quyidagi jadvalda emojilarni o'rganish uchun asosiy usullar, ularning nazariy manbalari hamda vazifalari umumlashtiriladi.

Jadval 1. Ingliz va o‘zbek tillarida emoji birliklarini chog‘ishtirma tadqiq etishning asosiy metodlari


Metod	Nazariy manba	Tahlil birligi	Tadqiq vazifasi	Tahlil natijalari
Chog‘ishtirma	Lado, James, Krzeszowski	Emoji shakli va funksiyasi	O‘xshashlik, farq, ekvivalentlik va asimmetriyani aniqlash	Formal qiyos funksional qiyos bilan to‘ldiriladi
Komponential	Katz, Fodor, Nida, Lyons, Cruse	Semantik belgi	Yadroviy ma’no va konnotativ qatlamlarni ajratish	Yadroviy ma’no kontekstdagi kengayish bilan birga olinadi
Kognitiv	Fillmore, Rosch, Lakoff, Langacker	Freym va prototip	Kontekst, ssenariy va konseptual assotsiatsiyalarni ochish	Talqin milliy-madaniy freymlar bilan bog‘lanadi
Pragmatik	Austin, Searle, Levinson, Yus	Nutqiy akt va niyat	Emoji ishlatilish maqsadi va illokutiv kuchini sharhlash	Ma’no kommunikativ vazifa orqali tekshiriladi
Multimodal	Kress, van Leeuwen, Jewitt	Matn-emoji kompleksi	Vizual va verbal qatlam munosabatini tahlil qilish	Emoji matndan ajratib o‘rganilmaydi
Korpus	Biber, Sinclair, McEnery	Qo‘llanish chastotasi, kollokatsiya	Tendensiyalar va statistik ustunliklarni ko‘rsatish	Miqdoriy natijalar sifat tahlili bilan verifikatsiya qilinadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, emoji birliklarini chog‘ishtirma o‘rganishda bitta usul barcha savollarga javob bera olmaydi, aksincha, bir usul ikkinchisining natijasini to‘ldirib boradi. Xususan, kontrastiv metod tillararo moslikni belgilasa, komponential tahlil ma’no tarkibini ko‘rsatadi, pragmatik va diskurs tahlili esa shu ma’noning real kommunikativ vazifasini ochadi.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, madaniyatlararo farqlarni aniqlashda lingvomadaniy yondashuv ham zarurdir. J. Park, Y. M. Baek va M. Cha Twitter materialida noverbal raqamli belgilar madaniyatga qarab turlicha ishlatilishini, ayniqsa emotsiya va munosabat ifodasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadilar [7; 333–354-b.]. H. Miller va uning hammualliflari turli platformalardagi bir xil emoji foydalanuvchilar tomonidan har xil talqin qilinishini ko‘rsatib, vizual shaklning o‘zi ham interpretatsiyaga ta’sir qilishini asoslab o‘tishgan [8; 269-b.]. Mazkur natijalar ingliz va o‘zbek tillaridagi emoji semantikasi tadqiqida milliy kommunikativ odatlar, adabiy me’yor va internet etiketi kabi omillarni ham kuzatish lozimligini ko‘rsatadi. Shunday xulosa qilish mumkinki, lingvomadaniy farqlar emojining denotativ mazmunidan ko‘ra uning konnotativ va pragmatik qatlamida yaqqolroq ko‘rinadi.


Semantik belgilash jarayonida emoji birliklari bir necha parametr asosida tasniflanadi. Birinchi parametr — denotativ yo‘nalish: emotsiya, jest, predmet, holat, hodisa, vaqt, munosabat yoki baholash. Ikkinchi parametr — konnotativ yuk: ijobiy, salbiy, ironik, yumshatuvchi, kuchaytiruvchi, kinoyaviy, samimiy, masofani qisqartiruvchi va hokazo. Uchinchi parametr — pragmatik vazifa: rozilik, rad etish, iltimosni yumshatish, qo‘llab-quvvatlash, hazil signalini berish, kinoya, achinish, tabriklash, duo qilish, e’tiborni jalb etish, muloqotni yopish yoki davom ettirish. To‘rtinchi parametr — multimodal integratsiya turi: matnni takrorlash, aniqlashtirish, kuchaytirish, almashtirish yoki unga zid ma’no berish. Bunday ko‘p o‘lchamli klassifikatsiya

Cruse va Levinson ta'kidlagan semantik hamda pragmatik qatlamlarni birlashtirishga imkon beradi [9; 24-b.]. Fikr qilib aytish mumkinki, emoji faqat hissiyot belgisi deb ko'rilganda uning ko'p qatlamli tabiati yo'qoladi, shu bois belgilash tizimi ko'p komponentli bo'lishi lozim.



1-rasm. Emojilarni semantik belgilash uchun asosiy tasniflar jamlanmasi

Mazkur o'rinda ta'kidlash joizki, emojilarni chog'ishtirma tahlilida muhim nuqta ekvivalentlik darajalarini to'g'ri belgilashdir. Tahlillarda uch turdagi ekvivalentlikni farqlash mumkin: to'liq funksional moslik, qisman moslik va kontekstual nomutanosiblik. To'liq moslik holatida ingliz va o'zbek diskursida bir emoji deyarli bir xil semantik-pragmatik vazifani bajaradi. Qisman moslikda belgi yadroviiy ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, konnotativ yoki uslubiy yukida farq kuzatiladi. Kontekstual nomutanosiblikda esa bir emoji ning bir til jamoasida ijobiy, boshqa jamoada esa kinoyaviy yoki hatto noqulay talqin qilinishi mumkin. Krzeszowski va James ishlari shunday asimmetriyalarni kontrastiv tahlilning tabiiy natijasi sifatida ko'rishga undaydi [10; 107–126-b.]. Bizning pozitsiyamizga ko'ra, dissertatsiyaning asosiy ilmiy qimmati aynan mana shu qisman moslik va nomutanosiblik zonalarini aniqlash bilan belgilanadi. Quyidagi chizma umumiy metodik model bo'lib, unda material tanlash, kodlash, semantik va pragmatik belgilash, qiyosiy talqin va natijalarni verifikatsiya qilish bosqichlari bir tizimga keltirilgan. Mazkur model yuqorida ko'rib chiqilgan nazariyalar qanday qilib yagona amaliy sxemaga birlashishini ko'rsatadi.



2-rasm. Ingliz va o'zbek tillarida emoji birliklarini chog'ishtirma tahlil qilishning metodik modeli

Yuqorida ko'rsatilganidek, tadqiqot modeli ikki yo'nalishni birlashtiradi: bir tomondan, ma'lumot bilan ishlashning texnik-korpus bosqichlari, ikkinchi tomondan esa semantik, pragmatik va lingvomadaniy interpretatsiya bosqichlari. Dastlabki ikki bosqichda manbalar tanlanadi va tozalanadi, bu yerda asosiy maqsad taqqoslanadigan, ishonchli va kontekstual jihatdan yetarli material bazasini shakllantirishdan iborat. Keyingi bosqichlarda esa emoji birliklari kodlanib, ularning ma'no qatlami va kommunikativ vazifasi tahlil qilinadi. Yakuniy bosqichda ingliz va

o‘zbek materiallari bo‘yicha olingan natijalar qiyoslanadi va umumlashtiriladi. Bizningcha, metodik modelning bunday ikki qirrali qurilishi tadqiqotning ham nazariy, ham amaliy jihatdan mustahkam bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, emojilarni qiyosiy tadqiq etilganda o‘ziga xos muammolar yuzaga keladi. Ana shu tadqiqotning muhim murakkabliklaridan biri platformalararo o‘zgaruvchanlikdir. Bir xil Unicode belgisi turli platformalarda biroz boshqacha grafik ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat ayrim hollarda interpretatsiyani o‘zgartiradi. Miller va hammualliflari aynan shu omil foydalanuvchilar talqinidagi tafovutlarga sabab bo‘lishini ko‘rsatishgan [11; 259–268-b.]. Yuqoridagilardan emoji ma‘nosini faqat Unicode nomiga qarab talqin qilish yetarli emas, real foydalanuvchi ko‘radigan vizual variant ham semantik omil hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Yana bir metodik muammo bir xabarda bir nechta emoji ketma-ket qo‘llangan holatlarni tahlil qilishdir. Bunday holatlarda emojilar alohida-alohida emas, balki klaster sifatida ishlaydi: ular ma‘noni kuchaytiradi, gradatsiya yaratadi, ironiyani kuchaytiradi yoki verbal qismni butunlay almashtirishi mumkin. Korpus tahlili bunday klasterlarning takrorlanishiga e‘tibor qaratadi, multimodal tahlil esa ular matn bilan qanday integratsiyalashganini ko‘rsatadi. Emojilar ketma-ketligining semantikasi tadqiqotning alohida kuzatuv maydoni bo‘lishi kerak, chunki aynan klasterlar internet muloqotidagi emotsional va stilistik intensivlikni namoyon etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Emoji birliklarini chog‘ishtirma o‘rganishda tarjimaviy va interpretativ muammolar ham uchraydi. Ba‘zan bir til jamoasida odatiy, yumshoq yoki hazilomuz talqin qilinadigan emoji boshqa til jamoasida rasmiyroq, keskinroq yoki noqulayroq qabul qilinishi mumkin. Shu bois tahlilda emojining matndan mustaqil ma‘nosi emas, balki muayyan gapda qanday o‘qilgani asosiy mezon sifatida olinadi. Bu yerda kontekstual sharh, diskursdagi pozitsiya, javob reaksiyasi va nutqiy akt turi muhim ahamiyatga ega. Emoji tadqiqida tarjima tushunchasi ko‘pincha to‘g‘ridan to‘g‘ri almashtirish emas, balki funksional interpretatsiya sifatida tushunilishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida emoji birliklarini chog‘ishtirma o‘rganish uchun taklif etilayotgan metodlar majmui bir necha ilmiy talabni qondiradi: u nazariy jihatdan asosli, amaliy jihatdan qo‘llash mumkin, korpus va diskurs bilan ishlashga mos, shuningdek, milliy-madaniy farqlarni qayd etishga qodir. Mazkur maqolada ko‘rsatilgan metodik yondashuvlar keyingi izlanishlarda emojining denotativ, konnotativ, emotsional-ekspressiv va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish uchun tayanch vazifasini bajaradi. Umumiy ravishda, emoji semantikasining haqiqiy chog‘ishtirma manzarasi aynan turli metodlarning o‘zaro uyg‘un qo‘llanishi orqali ochiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. James C. Contrastive analysis. — London: Longman, 1980. — P. 3–19.
2. Lado R. Linguistics across cultures. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. — P. 17.
3. Fisiak J. Contrastive linguistics and the language teacher. — Oxford: Pergamon Press, 1981. — P. 104.
4. Katz J. J., Fodor J. A. The structure of a semantic theory // *Language*. — 1963. — P. 210.
5. Nida E. A. Componential analysis of meaning. — The Hague: Mouton, 1975. — P. 32–41.
6. Lyons J. Semantics. Vol. 1. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977. — P. 174–188.
7. Park J., Baek Y. M., Cha M. Cross-cultural comparison of nonverbal cues in emoticons on Twitter: evidence from big data analysis // *Journal of Communication*. — 2014. — P. 333–354.
8. Miller H., Thebault-Spieker J., Chang S., Johnson I., Terveen L., Hecht B. “Blissfully happy” or “ready to fight”: varying interpretations of emoji // *Proceedings of ICWSM*. — Cologne: AAAI Press, 2016. — P. 259–268.
9. Cruse D. A. Lexical semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986. — P. 16–24.
10. Krzeszowski T. P. Contrasting languages: the scope of contrastive linguistics. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1990. — P. 107–126.